

**XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR
MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODEL.**

Alimova Shamsiya Raximovna

Buxoro davlat universiteti 2 bosqich tayanch doktoranti

shamsiya.alimova.82@mail.ru

Annotatsiya: *Xalq pedagogikasi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviyatini rivojlantirishning pedagogik modelini yaratish, bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy rivojlantirishda xalq pedagogikasining boy an‘analarini asos sifatida olish va zamonaviy ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirish nazarda tutilgan. Xalq pedagogikasi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviyatini rivojlantirish bosqichlari, komponentlari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Model, marosimlar, an‘anaviy urf-odatlar, xalq an‘analari, komponentlari, korreksiyalash, kreativ, professional.*

Kirish

Yangi o‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan biri ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirishdir. “Pedagogika... milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ya’ni inson, ma’naviyat, hayot, hayotiy ijodkorlik”, deb ta’kidlaydi **V.S.Shubinskiy**. Darhaqiqat, jamiyatimizning ma’naviy tiklanishi ko‘p jihatdan bo‘lajak o‘qituvchiga bog‘liq, chunki aynan o‘qituvchining ma’naviy madaniyati yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyat yo‘nalishlari va tamoyillarini shakllantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yangilashni nazarda tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiga munosim shaxs sifatida yondashishga eng avvalo faqat izlanuvchan, ijodiy mehnat qiladigan, tirishqoqligi nazarda tutiladi. Xalq pedagogikasi insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridanoq xalq ijodi va pedagogik madaniyat bilan chuqur bog‘langan. U jamoa yoki jamiyatning umumiy tajribasi, amaliyoti va madaniy an‘analaridan kelib chiqadi, ular bo‘lajak o‘qituvchilarga bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni berish usullarini aks ettiradi. **A.E.Izmaylovning** fikricha, “xalq pedagogikasi xalq ijodkorligining tarkibiy qismi, pedagogik madaniyatning ifodasi sifatida eng qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan”. Tarix davomida, rasmiylashtirilgan ta’lim tizimlari mavjud bo‘lgunga qadar, o‘rganish birinchi navbatda norasmiy, jamoaviy va tajribaviy vositalar orqali amalga oshirilgan. Xalq pedagogikasi

vositasida bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviyatini rivojlantirish modeli sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin.

Birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni xalq pedagogikasi tushunchasi bilan tanishtirish juda muhimdir.Chiroyli xulq oftobga o‘xshaydi, oftob muzni eritgani yoki suv tuzni eritib yuborgani kabi chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi. (**Abulbarokot Qodiri**). Darhaqiqat bo‘lajak o‘qituvchi hikmatlar shodasi bilan qanchalik sug‘orilsa, xalq pedagogikasidagi namunalarni faoliyatda ko‘proq talqin qilishga harakat qilsa faoliyat samaradorligiga erishadi.

Ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zlarining madaniy merosini o‘rganishga va ularning jamoalarini shakllantirgan xalq an‘analari, hikoyalari, qo‘shiqlari va marosimlarini aniqlashga undash kerak. Savodxonlik darslariga xalq ertaklarini kiritish, an‘anaviy hunarmandchilik va ko‘nikmalarni o‘rgatish yoki ritm va naqsh kabi tushunchalarni o‘rganish uchun xalq musiqasi va raqslaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. “Ilmga nisbatan go‘yo cho‘pon kabi posbon bo‘lish” deyilganda, bo‘lajak o‘qituvchi o‘z fani ustidan doim yangiliklarga qiziqib ma’lumotlar zahirasi to‘ldirib borishi darkorligi ta’kidlanmoqda. Yana bir misolni kuzatamiz.

Agar hunarmand bo‘lsa, u hunarning ilmini bilishi vojibdir. Agar savdogar bo‘lsa, savdo ilmini bilmog‘i vojib sanaladi: hamma bay‘i va shart-sharoitlarni bilgay. Toki botil bay‘dan hazar qilgay ushbu vajhdan .**Umar roziyallohu anhu** bozor ahlini darra urib, ilm o‘rganishga buyurar edilar . U zot roziyallohu anhu, olmoq va sotmoq masalalarini bilmagan kishi bozorga kirmag‘ayki, xabari bo‘lmagan holda o‘zi harom yer, deganlar. Har hunarmand o‘z hunarining ilmini bilmagi vojibdir. Ayni haqiqatki bo‘lajak o‘qituvchi o‘z fanining yetuk mutaxassisi, ma’naviyati teran, irodasi mustahkam bo‘lmas ekan, jamiyatda, xalq orasida munosib o‘rin egallay olmasligini uqtirilishi lozim.

Tadqiqot usuli: Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy mahorati, yosh avlodga berilayotgan ma’naviy tarbiyasiga bog‘liq. Shu o‘rinda, yurt kelajagi va istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liqligini qayd etish mumkin. Yillar tajribasi shuni ko‘rsatdiki bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviyatini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy bilimlar, qadriyatlar, fazilatlar, ma’naviy faoliyat kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi (rasmga qarang).



bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy bilimlarning shakllanishi natijasida mustahkan immunitet hosil bo'ladi. ezgulik, e'tiqod, vijdon, adolat, muhabbat, or-nomus singari insoniy fazilatlar tarkib topadi. Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan noyob meroslarda ham ko'rishimiz mumkinki inson ma'naviy kamoloti diqqat markazda turganini o'sib kelayotgan yosh avlod ongiga, tafakkuriga singdirish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar xalq pedagogikasi vositasida ma'naviyatini rivojlantirishda quyidagi bosqichlarga rioya qilishi kerak.

- Maqsad qo'yish, mazmunni aniqlash va tizim tashkil etish
- Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish
- Baholash va korreksiyalash

Bo'lajak o'qituvchi manashunday bosqichlarni o'z o'rnida qo'yib faoliyat yuritishni maqsad qilsagina kutilgan natija o'z samarasini beradi.

Ko'rsatilgan bosqichlar negizida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida ma'naviy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali yoshlarni ma'naviy-tarbiyalash;
- ma'naviy tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- yoshlarning ma'naviy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;
- ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, yoshlarni kompetentli ijtimoiy faol mutaxassis sifatida tayyorlashga erishish.

“Xalq pedagogikasi vositasida bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini rivojlantirishdagi pedagogik modelning komponentlari.

Maqsadli blok: Kasbiga nisbatan mas'uliyat, milliy iftixor tuyg'usini singdirish. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Milliy qadriyatlarni qadrlash va hurmat qilish.

2. O'zlikni anglash va milliy o'zlikni shakllantirish.

3. Ma'naviy tarbiya va shaxsiy o'sishga intilish.

4. Jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash.

5. Professional va ma'naviy komillikka intilish:

Mazmuniy blok: Bo'lajak o'qituvchilarni xalq pedagogikasi asosida ta'lim berish mazmuniy bloki quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi.

1. Xalq pedagogikasining asosiy tamoyillari Milliy tarbiya an'analari va qadriyatlari. Ota-bobolarimizning tarbiya borasidagi tajribalari va nasihatlar.

2.

alq pedagogikasi va zamonaviy pedagogika, tarbiya metodlarining zamonaviy ta'lim metodikasi bilan uyg'unligi.

3. Milliy o'zlik va qadriyatlarni shakllantirish

4. An'anaviy xalq pedagogikasi asosida darslarni tashkil qilish. Xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar va dostonlardan foydalangan holda darslar tashkil qilish.

5. Etik va estetik tarbiya. Xalq pedagogikasida odob-axloq normalarini o'rgatish.

Estetik tarbiyada xalq qo'shiqlari, san'at asarlari va milliy kiyimlar orqali o'quvchilarda go'zallikka ishtiyoq uyg'otish.

6. Yosh avlodda mehnatsevarlik va mas'uliyat hissini shakllantirish.

Quyida ko'rsatilganlar kelajakdagi o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tashkiliy-blok: bunda xalq pedagogikasi asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

1. An'anaviy qadriyatlar va urf-odatlarga asoslanish

2. Mahalliy madaniyat va tarbiya uslublaridan foydalanish

3. Oilaviy va jamoaviy tarbiyaga e'tibor qaratish.

4. Mas'uliyatli munosabat va hamkorlikka asoslangan o'qitish

5. Mahalliy muhitga moslashtirilgan o'quv dasturlari

6. Hayotiy misollar orqali ta'lim berish

7. Xalq pedagogikasi asosidagi o'yin va interaktiv metodlardan foydalanish

Yondashuvlar bo'lajak o'qituvchining o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Natijaviy blok: bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy rivojlanish darajasini o'lchash maqsadida ifodalaniladi.

1. **Ma’naviy tushunchalar va qadriyatlarni tushunish.** Bo‘lajak o‘qituvchilar asosiy milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar hamda ma’naviy tushunchalarni o‘zlashtirib olishi.

2.

‘zini anglash va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish. Bu o‘zining shaxsiy mas’uliyatini his etishda muhim rol o‘ynaydi.


3.

a’naviy muammolarni tahlil qilish va hal etish qobiliyati. Ma’naviy masalalarni tahlil qilib yechimini toppish.

4. **Milliy va umumjahon qadriyatlarni qadriga yetish.** O‘z milliy qadriyatlari, umumjahon qadriyatlarini qabul qilib hurmat qilish.

5. **Ma’naviy rivojlanishga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantirish.** bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z ma’naviyatini rivojlantirishni doimiy maqsad qilib, o‘z ustida tinimsiz ishlab borishi.

Bu model bo‘lajak o‘qituvchilar ma’naviyatini xalq pedagogikasi asosida rivojlantirishda ta’sirchan usul sifatida xizmat qiladi.



Xulosa: Yaratilgan model bo'lajak o'qituvchilar ma'naviyatini xalq pedagogikasi asosida rivojlantirishda ta'sirchan usul sifatida xizmat qiladi. Natijalar o'quv jarayonida amalga oshirilgan ma'naviy-tarbiyaviy ta'sirlar samaradorligini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviyatini xalq pedagogikasi asosida rivojlantirish uchun yuqoridagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olish juda muhim, jumladan ushbu tizim bo'lajak o'qituvchilarni xalq qadriyatlarini tushunadigan, milliy va ma'naviy jihatdan barkamol shaxslar sifatida shakllantiradi hamda xalq pedagogikasi vositasida tarbiyalangan bo'lajak o'qituvchilar kelgusida o'z o'quvchilariga ham ma'naviy qadriyatlarni samarali tarzda etkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni.
2. MUTALIPOVA M.J. “XALQ PEDAGOGIKASI” «Fan va logiya» nashriyoti, 2015.
3. Qoraboyev U.H. “Odatnoma”. T.:“O'zbekiston” -2018. 14-15 bet
4. Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub". Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019-yil. 316 bet.
5. Xodjayev B.X."Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent - 2017, "Sano-standart" nashriyoti.
6. Alimova, Sh.R. (2024). BOLAJAK OQITUVCHILARNI XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA MANAVIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 49(49).
7. Alimova, Sh.R. (2022). O'quvchilarda O'z Faoliyatlarini Baholash Va Tashxislash Ko'nikmalarini Shakllantirish. *Центр Научных Публикаций* (Buxdu. Uz), 19(19).
8. Alimova, Sh.R. (2023). Pedagogical-Psychological Features of Developing the Spirituality of Future Teachers by Means of Folk Pedagogy. *International Journal of Formal Education*, 2(11), 435-441.
9. Alimova, Sh.R. (2024). Xalq Pedagogikasi BoLajak OQituvchilar MaNaviyatini Rivojlantirish Vositasi Sifatida. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 2(4), 65-67.